

## “AJURLI ARRA” INTERFAOL METODINING MAZMUN VA MOHIYATI

*Idiyeva Niginabonu Erkin qizi*

*Buxoro davlat pedagogika instituti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi  
(boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi II kurs magistri*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy interfaol metodlardan biri bo'lgan “Ajurli arra” metodining mazmuni, o'tkazilish tartibi va uni qo'llash mumkin bo'lgan mashqlardan namunalari keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Interfaol metod, “Ajurli arra” metodi, konvert, ajour, texnologiya.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanib kelinmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlaridan foydalanish o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holatda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini aktivlashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga xizmat qiladi.

Ayni damda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanishi hech birimizga sir emas. Shu bilan birga, interfaol ta'lim metodlarining turlari juda ko'p bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonining deyarli hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslarini hozirda topa olamiz. Amaliyot jarayonida ta'limda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta'lim metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash muammosini keltirib chiqargan.

Buning uchun dars jarayoni to'g'ri tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi doimiy rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoli vaziyatni o'zaro muloqotda, o'zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjihatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundan iboratki, butun faoliyat o'quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi.

O'qitishning interfaol usullarini tanlashda ta'limning maqsadi, ta'lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o'quv muassasasining o'quv-moddiy sharoiti, ta'limning davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e'tiborga olinishi zarur.

Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta'lim metodlari quyidagilar sanaladi:

1. Interfaol metodlar: "Keys-stadi" (yoki "O'quv keyslari"), "Blits-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Muammoli ta'lim" va boshqalar.

2. Interfaol ta'lim strategiyalari: "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotatsiya", "Yumaloqlangan qor" va hokazo. Interfaol ta'lim metodlari tarkibidan interfaol ta'lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma'lum ma'noda strategic yondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasi uncha farqlanmaydi.

3. Interfaol grafik organayzerlar: "Baliq skeleti", "BBB", "Konsteptual jadval", "Venn diagrammasi", "T-jadval", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?" va boshqalar hisoblanadi. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg'ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko'rinishda ifodalanishiga yondashiladi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishlash ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlarni ko'rmaymiz.

Interfaol ta'lim metodlari ko'pincha turli shakllardagi o'quv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan bir vaqtda qo'llanilmoqda. Bu metodlarni qo'llash mashg'ulot ishtirokchilarining faolliklarini oshirib, ta'lim samaradorligini yaxshilashga xizmat qilishi begumon.

Aslida, interfaol metodlar bugungi kunda juda ham ko'payib ketdi. Shunday metodlardan biri "Ajurli arra" metodi haqida sizga ma'lumot berib o'tmoqchimz. Bu metod amaliyotda unchalik keng qo'llanilmaydi.

Pedagogikada bunga o'xshash "Arra" metodi ham mavjud. "Arra" metodini 1978-yilda E.Aronson kashf etdi. Pedagogik amaliyotda mazkur metodda kichik guruhlar 6-8 ta o'quvchidan tashkil topadi. Dars davomida o'rganiladigan mavzu mantiqan tugallangan qismlarga ajratiladi. Har bir qism yuzasidan o'quvchilar bajarilishi lozim bo'lgan o'quv topshiriqlari tuziladi. Har bir o'quvchilar guruhi mazkur topshiriqlarning bittasini bajaradi va shu qism bo'yicha «mutaxassis»ga aylanadi. So'ngra guruhlar qayta tashkil etiladi. Bu guruhlarda har bir qism (blok yoki modul) «mutaxassis» bo'lishi shart, mazkur «mutaxassis»lar o'zlari egallagan bilimlarni xuddi "arra" tishlari ketma-ket kelganidek navbat bilan o'rtoqlariga bayon qilishadi. Mazkur guruhlarda o'quv materialini mantiqiy ketma-ketlikda qayta ishlab chiqiladi.

Bundan keyin 1986-yili R.Slavin "arra" metodini qisman o'zgartirib "arra-2" metodini yaratdi. Mazkur metodga ko'ra kichik guruh 4-5 o'quvchidan tashkil topadi.

Barcha guruh a'zolari o'quv materiali yuzasidan tuzilgan yagona topshiriq ustida ishlaydi. Guruh ichida o'quvchilar topshiriqlarni qismlarga ajratib, bo'lib oladilar. Har bir o'quvchi o'ziga tegishli qismini puxta o'zlashtirib "mutaxassis"ga aylanadi. Dars oxirida har bir kichik guruhdagi "mutaxassis"lar uchrashuvi qayta tashkil etilgan guruhlarda o'tkaziladi.

O'quvchilar bilimi test savollari yordamida individual tarzda o'tkazilib nazorat qilinadi va baholanadi. Guruh a'zolarining ballari jamlanadi, eng yuqori ball to'plagan guruh g'olib hisoblanadi.

"Ajurli arra" metodi. Ajur fransuzcha "ajour" so'zidan olingan, "bir yoqdan ikkinchi yoqqa o'tgan, ikki tomoni ochiq" degan ma'noni anglatadi.

Bu metodni amalga oshirishda quyidagi bosqichlarga amal qilinadi:

- talaba-o'quvchilardan 4-5 kishidan iborat kichik guruhlar tashkil etiladi;
- talaba-o'quvchilarga beriladigan topshiriq va ularni bajarishda foydalaniladigan matnli materiallar bir necha asosiy qismlar (masalan, reja asosida bir nechta mavzuchalar tayyorlash ham mumkin)ga qir qiladi;
- mavzuchalar va ularga doir matnli materiallar paketi kichik guruhlarining har bir a'zosiga tarqatiladi;
- tashkil etilgan kichik guruh a'zolari matnli materiallardan foydalanib topshiriqni bajarishga kirishadilar;
- kichik guruhlarining yaxshi o'zlashtiruvchi lider a'zolaridan ekspert guruhi tashkil etiladi;
- ekspert guruhi a'zolari qo'llaridagi topshiriqlarni hamkorlikda muhokama qilishib, boshqalarga o'rgatish rejasini tuzadilar;
- ekspertlar o'zlarining dastlabki kichik guruhlariga qaytib, o'rganganlarini boshqa sheriklariga ham o'rgatishadi.

O'qitishga bunday yondashilganda, talaba-o'quvchilarning hamkorlikdagi ishlariga va katta hajmdagi o'quv materiallarining o'zlashtirilishiga erishadilar. Bu metoddan foydalanuvchi pedagog talaba-o'quvchilarga taqdim etilgan topshiriqni bajarishga doir materiallarni qunt bilan o'rganishni, birgalikda muhokama etishni, savol-javob qilishni, o'rganganlarini boshqalarga o'rgatishlari zarurligini oldindan aytishi kerak bo'ladi.

Ushbu metoddan boshlang'ich sinf miqyosida foydalanish ancha tor doiraga ega. Yuqori sinf darslarida keng imkoniyat yaratadi.

Metoddan, ayniqsa, o'tilgan mavzuni so'rash bosqichi, yangi mavzuni mustahkamlash bosqichida, takrorlash va mustahkamlash darslarida ko'proq foydalanish mumkin. Bu o'quvchilarning mavzuni mustaqil va puxta o'zlashtirishlariga, kommunikativlik kompetensiyasi va axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishga, bundan tashqari, guruh bilan ishlashga o'rgatadi.

Boshlang'ich sinfda ona tili va o'qish savodxonligi, o'qish, metamatika, tabiiy fan kabi fanlarda hajmi katta bo'lgan materialni o'rganishda foydalanish maqsadga muvofiq. Masalan, o'qish darsida she'r, ertak yoki qaysidir hikoyani o'rganish yoki mustahkamlash jarayonida materialni bo'laklarga bo'lib, konvertlarga solib beriladi. Guruhlar materialni bir butun qilib tushuntirib beradilar.

Aytaylik, 1-sinf Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligidagi "Bahor keldi" she'rini "Ajurli arra" metodidan foydalanib o'tkazaylik.

Keldi bahor – gulbahor,  
Erib bitdi oppoq qor.  
Uchib keldi qushlarjon,  
Daraxtlar taqdi marjon.  
Suvlar oqar shildirab,  
Yulduz boqar miltirab.  
Chumolilar yayrashar,  
Sho'z bulbullar sayrashar.

Tog' bag'rida qo'zilar,  
Ma'rab o'tga cho'zilar.  
Tolbargak taqib qizlar,  
Chuchmomalarni izlar.  
Endi ilk sof navbahor,  
Chunki bizda gulbahor.  
Yuring, chiqayli! Bog'lar  
Bizni kutar, o'rtoqlar.

Quyosh nurlarin sochdi,  
Atirgul g'uncha ochdi.  
Bog'da qizil lolalar,  
Terib oling, bolalar.

Ushbu she'rni har bir qatorini bo'laklarga bo'lib, 5 banddan iborat bo'lgani uchun har bitta bandini 1 tadan konvertga solib tarqatamiz (1-rasm). Guruh a'zolari konvertdagi bo'laklangan she'r bandlarining ketma-ketligini taxlaydilar. Guruh liderlari she'rning boshqa bandlarini ham birlashtirib, bandlar ketma-ketligini qo'yib, navbat bilan she'rni to'g'rilab o'qiydilar.

Keldi bahor – gulbahor,  
Erib bitdi oppoq qor.  
Uchib keldi qushlarjon,  
Daraxtlar taqdi marjon.  
Suvlar oqar shildirab,  
Yulduz boqar miltirab.  
Chumolilar yayrashar,  
Sho'x bulbullar sayrashar.  
Quyosh nurlarin sochdi,  
Atirgul g'uncha ochdi.  
Bog'da qizil lolalar,  
Terib oling, bolalar.  
Tog' bag'rida qo'zilar  
Ma'rab o'tga cho'zilar.  
Tolbargak taqib qizlar,  
Chuchmomalarni izlar.  
Endi ilk sof navbahor,  
Chunki bizda gulbahor.  
Yuring, chiqaylik! Bog'lar  
Bizni kutar, o'rtoqlar.

Keldi bahor – gulbahor,

Erib bitdi oppoq qor.

Uchib keldi qushlarjon,

Daraxtlar taqdi marjon.

Suvlar oqar shildirab,

Yulduz boqar shildirab.


Chumolilar yayrashar,

Sho'x bulbullar sayrashar.




1-rasm. She'rning bandlari bo'laklarga bo'linadi va konvertga solinadi.

Boshlang'ich sinf matematika darsida ko'p amalli misollarni yechish mavzusini mustahkamlash jarayonida o'qituvchi ko'p amalli misolning qadamba-qadam yechilishini alohida misollar qilib, bo'laklarga bo'ladi va har bir misollarni alohida konvertlarga solib tarqatadi (2-rasm). Konvertlar kichik guruhlarga tarqatilgach, guruhlar konvert ichidagi bo'laklangan misolni bir butunga keltiradilar.



2-rasm.

Liderlar misollarni chiqib doskaga yozadi. Misollar ketma-ketligi raqamlanadi (3-rasm).



3-rasm.

Oxirida yuqoridagi ketma-ketlik asosida bajarilagan bir butun misol gavdalanadi.

$$456:12+84*67-973=4693$$

Ushbu metodni induksiya metodiga qiyoslash mumkin. Chunki bunda xususiylikdan umumiylikka qarab fikr yuritiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, boshlang'ich sinf matematika darslarida berilgan topshiriqlarni o'quvchilar to'g'ri anglashlari uchun o'qituvchi-pedagog o'quvchilarga aniq yo'l, usul ko'rsata olishi kerak. Yuqorida keltirilgan metoddan foydalanish ham ta'lim mazmunini samarali yetkaza olishga imkon yaratib beradi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Hakimova M. Matematika o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2020.
2. Jumayev M.E. va boshq. Matematika o'qitish metodikasi. Darslik. Toshkent, 2018.
3. Qosimov F.M., Qosimova M. Matematika. O'quv qo'llanma. Buxoro, 2006.
4. Qosimova M., Qosimov A. "ON SOME TYPICAL PROBLEMS TO BE SOLVED IN PRIMARY SCHOOLS" Vol 10, Issue 1, January 2021: ACADEMICIA An International multidisciplinary Research Journal.
5. Saidova M.J., Idiyeva N.E. Boshlang'ich sinflarda matematika darslarida individual topshiriqlar orqali o'quvchilarda axborot kompetentligini oshirish. "Ustozlar uchun" jurnali. 11-son. 2021-y.
6. Saidova M.J., Idiyeva N.E. Teaching Integration Tasks Based on Information Technology in Primary School Mathematics. ISSN (E): 2795-7683. In volume 6. Of Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences March, 2022.